



UDK:182.2

Abdurasul ABDULLAYEV,
Xalqaro islomshunoslik akademiyasi doktoranti
E-mail:abdullayevabdurasul155@gmail

Professor J.Eshnazarov taqrizi asosida

ISLOM OLAMIDA ILM-FAN VA MADANIYAT RIVOJLANISHINI TADQIQ ETISHDAGI YONDASHUVLAR

Аннотация

Mazkur maqolada Islom olamida ilm-fan va madaniyatning ravnaq topishi, musulmonlar bilimga oliy qadriyat sifatida munosabat bildirganliklari, islom sivilizatsiyasining shakllanishi va rivojlanishida ilm-fan va madaniyatning o'zini, islom olamida ilm-fan va madaniyatning ravnaq topishi diniy qonun-qoidalarni o'zi bilan emas, balki uning murakkab ijtimoiy-tarixiy faoliyati, fikr erkinligiga oid islohiy harakatlar va tashqi sivilizatsiyalar bilan ilmiy muloqot natijasida sodir bo'lganligi bayon qilingan. Shuningdek, bugungi kunda rivojlangan g'arb davlat olimlari ilm-fan, madaniyat islom orqali butun dunyoga tarqalganligini e'tirof etishlari, milliy madaniyatlarning gullab-yashnashi, islom dini bilan ilm-fan va ma'rifatni yoyilishligi bilan bog'liq ekanligi e'tirof etilgan.

Kalit so'zlar: sivilizatsiya, musulmon madaniyati, xalifa, global, jamiyat taraqqiyoti, diniy konservatizm.

ПОДХОДЫ К ИССЛЕДОВАНИЮ РАЗВИТИЯ НАУКИ И КУЛЬТУРЫ В ИСЛАМСКОМ МИРЕ

Аннотация

В данной статье рассматривается развитие науки и культуры в исламском мире, отношение мусульман к знаниям как к высшей ценности, роль науки и культуры в становлении и развитии исламской цивилизации, развитие науки и культуры в исламском мире, а не сам религиозный закон, его сложная социально-историческая деятельность, свобода мысли. Было заявлено, что это произошло в результате реформистских движений и научного диалога с внешними цивилизациями. Также признано, что сегодня развитые западные государственные ученые признают, что наука, культура распространяются по всему миру через ислам, что связано с процветанием национальных культур, распространением науки и просвещения с исламской религией.

Ключевые слова: цивилизация, мусульманская культура, халифат, глобализм, развитие общества, религиозный консерватизм.

APPROACHES TO THE STUDY OF THE DEVELOPMENT OF SCIENCE AND CULTURE IN THE ISLAMIC WORLD

Annotation

This article describes the flourishing of science and culture in the Islamic world, Muslims' attitude towards knowledge as the highest value, the role of science and culture in the formation and development of Islamic civilization, and explains that the flourishing of science and culture in the Islamic world occurred not through religious laws and rules themselves, but through its complex socio-historical activities, reform movements related to freedom of thought, and scientific dialogue with external civilizations. It is also recognized that today scientists of developed Western countries recognize that science and culture spread throughout the world through Islam, the flourishing of national cultures is associated with the spread of science and enlightenment with the Islamic religion.

Keywords: civilization, Muslim culture, caliph, global, societal development, religious conservatism.

Kirish. Jahon sivilizatsiyalari tarixida muhim o'rin tutuvchi islom madaniyati dunyoda ilm-fan va madaniyatning taraqqiy etishiga beqiyos ulkan hissa qo'shdi. Islom dini VII asr boshlarida Arabiston yarim orolida yuzaga keldi, uning asoschisi payg'ambar Muhammad (570-632) alayhissalomdir. Islom dinining Arabistonda vujudga kelishi aql bovar qilmaydigan bir mo'jizadir. Chunki VII asrda Arabiston yarim oroli jaholat botqog'iga botgan, xalqi qoloq, badaviy, butparast bo'lgan. Muhammad (a.s.) ulkan davlatni vujudga keltirdi. Arablar qisqa vaqt ichida katta taraqqiyotga erishdi. Yangi din insonlarga yangi madaniyatni ham olib keldi. Birinchi xalifa Abu Bakr (632-634) Muhammad (a.s.)ning vafotidan so'ng "Ridda" (ba'zi arab qabilalarini islomdan chiqishga bo'lgan urinishi) urushlari orqali, u markaziy hokimiyatni saqlab qoldi va musulmon jamoatini birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. U moliyaviy va ijtimoiy islohotlar qildi. Qur'oni karimni kitob shaklida jamladi. Ikkinchi xalifa Umar ibn Hattob (634-644)

fatixlar orqali xalifalik hududini kengaytirdi. Misr, Shimoliy Afrika, Quddus va boshqa shu kabi hududlar qo'shildi. Ma'muriyatni tartibga solish, viloyatlarni bo'lish, voliylar tayinlash, harbiy va moliyaviy bo'limlar tashkil etish, soliq sistemasini shakllantirish, ijtimoiy adolat masalalari, kambag'allar va muhojlar uchun yordam, ijtimoiy tartib va qonun ustuvorligini saqlashni yo'lga qo'ydi. Uchinchi xalifa Usman ibn Affon (644-656) Qur'onni qayta jamlab kitob shakliga keltirdi. Qur'on nusxalarini standartlashtirib, turli hududlarda yubordi. Ijtimoiy infratuzilma, yo'llar, masjidlar va boshqaruv tizimlarini kengaytirdi. To'rtinchi xalifa Ali ibn Abi Talib (656-661) davrida ichki nizolar, fitnalar, ichki nizolar ko'paydi - Muoviya bilan urushlar (Siffin), Havorijlar harakati, ichki ijtimoiy va siyosiy barqarorlikka tahdidlar bo'ldi. Umaviylar (661-750) davrida hududlarning kengayishi sababli soliqlar, davlat xazinasini to'ldirish bo'yicha tizimlar mustahkamlandi. Abbosiylar (750-1258) sulolasi davrida islom

olamining gullab yashnagan davrini tashkil qiladi. Arab, fors, turk kabi turlimillat olimlari ilmiy madaniy markazlarda birlashdi. Islom dini va madaniyati rivojlandi. Arab tili umumiy tilga aylandi.

Adabiyotlar tahlili. Islomning bashariyat ilm-fani va madaniyatiga o'tkazgan ulkan ta'sirini g'arb olimlari ham e'tirof etishadi. Jumladan, fransiyalik olim Jolivet Kostelot o'zining "Tarix qonuni" kitobida bunday yozadi: "Islomni yoyilishini zamon talabi edi. Shu bois musulmonlar taraqqiyoti juda tezlab ketdi. Natijada aqlni lol qoldiruvchi islom madaniyati yuzaga keldi. Fathlar bilan birga islom madaniyati hamma joyga yoyildi. Islom madaniyati san'at, adabiyot va ilm-fanda aks etdi. Shu bilan falsafa, falakiyot ilmi, kimyo, tibbiyot va ruhiy ilmlar mash'ali bir necha asr mobaynida musulmonlar qo'lida qoldi. Ular ixtirochilarga aylandilar. Shunchaki ixtirochilar emas, balki ilm asoslarini juda o'tkir va o'taqobiliyat bilan qo'lga kiritgan ixtirochilar edi[1]. Zamonaviy tadqiqotchi K.Ponting xuddi shu ma'noda fikr bildiradi: "Dunyo tarixida hech bir din o'z izdoshlarini bunchalik tez va oson topmagan. 630-yilda Arabiston yarim orolidagi arablarning yuksalishi"[2]bu butunlay insoniyatni lol qoldirdi. Shu bois musulmonlar taraqqiyotining tezlashishi natijasida islom madaniyati yuzaga keldi.

Muhammad (a.s.) payg'ambarlik davrida va undan keyin ham adolat masalalari g'oyat teran ifodalangani uchun islom zamini kengayib bordi. Islom dini ta'limoti bilan birgalikda madaniyati ham keng tarqala boshladi. Islom ta'limoti, uning falsafasi jamiyat taraqqiyotida o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, tarixan barcha turdagi ijtimoiy munosabatlar bosqichma-bosqich rivojlanib borishiga ma'naviy asos bo'lgan. Davr taqozosi bilan islom dini ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy madaniy yo'nalishlarini mujassam etuvchi qonun-qoidalar, tartiblar majmuasi tarzida tashkil topgan. Musulmon madaniyatining ilk davrlarida barcha muammo va masalalarni hal etishda Muhammad (a.s.)ga kelgan vahiy Qur'oni karim, payg'ambarning hadisleri keyinchaliksahoba va tobeinlar turmush-tarziiga tayanish qabul qilindi. Shuning uchun ilk islom davrida an'anaga, ya'ni Qur'oni karim, sunnati nabaviy, taqlidga tayanish ustunlik qilgan, shu bilan birga bu davrda avvalo shariat (islom qonun-qoidalari) rivojlanadi [3]. Islom sivilizatsiyasining shakllanishi va rivojlanishida ilm-fan, madaniyatning alohida o'rnini bor. Ammo ayrim olimlar bu jarayonni mutlaq ijobiy tarzda baholash bilan cheklanib, uning tanqidiy jihatlarini yetarlicha inobatga olmaganlar. Ushbu fikr muayyan darajada to'g'ri bo'lsa-da, uning asosi islom olamida ilmning rivoji ko'p hollarda diniy talab va ehtiyojlar bilan belgilanganini inobatga olmagan.

Tadqiqotchi I.Ikramova shunday yozadi: "Ilmiy tafakkur tarixi shuni ko'rsatadiki, din va ilm-fan, o'zaro tafovutlariga qaramay, ijobiy yo'llarda o'zaro ta'sir o'tkazishlari mumkin. Din va ilm-fan o'rtasidagi munosabatlar asrlar davomida munozara mavzusi sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda"[4]. Ma'naviy madaniyatni yaratish va uning rivojlanish qonuniyatlarini bilish murakkab va juda ziddiyatli hodisadir. Bu jarayonni faqat obyektiv va subyektiv omillarning dialektik birligini hisobga olgan holda tushuniladi. Bu ma'naviy madaniyatning yaratilish jarayoni, tabiati va rivojlanish darajasi ijtimoiy ishlab chiqarishning o'ziga xos tarixiy shartlariga, aniqrog'i, jamiyatning ma'lum bir ijtimoiy-iqtisodiy doirada rivojlanishining qaysi bosqichida ekanligiga bog'liqligi bilan izohlanadi. Boshqa tarafdin, Muhammad Abdu"Islom olamida ilmning susayishi sababi faqat mustamlakachilik oqibatlarini emas, balki ichki din ta'limotining mukammal ravishda qayta ko'rib chiqilmaganligida"[5] deb hisoblaydi. Bu fikr to'liq qo'llab-quvvatlanadi, chunki XIII asrdan boshlab islom olamida diniy konservatizm kuchayib, mustaqil fikr va yangi ilm sohalari rivojiga qarshi reaksiyalar

kuchaygan [6]. Shuning uchun ham, islom olamida ilm-fan va madaniyat rivojlanishi birlamchi bosqichda ijobiy bo'lsa-da, keyinchalik ichki muammolar, diniy konservatizm va aqliy emas, naqlga asoslangan tafakkurning ustuvorligi sababli pasaygan. Tanqidiy tahlil shuni ko'rsatadiki, ko'pgina olimlar bu jarayonni ortiqcha ideallashtirgan yoki yetarli darajada ko'rib chiqmagan.

Islom olamida ilm-fan va madaniyatning ravnaq topishi masalasi ko'pgina mualliflar tomonidan ko'tarilgan bo'lsa-da, ularning tahlillari hamisha ham mukammal bo'ladi, degan emas. Xususan, R.Marcotte o'z asarida shunday ta'kidlagan: "Islomiy ilm-fan, sunnat manbalaridagi bilim an'alarida shakllangan va Qur'on bilan hadising markaziy ahamiyati, uning ilmiy taraqqiyotining asosi bo'lgan" [7]. Bu fikr haqiqat, chunki Qur'onga oid manbalarning ilm rivojiga ta'siri ayrim sohalarda (masalan, astronomiya, matematika va tibbiyot) asoslangan. Barcha ilm-fan sohalarida, ilmning rivoji ko'p hollarda pragmatik ehtiyojlar va amaliyot asosida shakllangan "Matematika" fanining nazariyotchilaridan bo'lgan Muhammad ibn Muso Xorazmiyning "Al-jabr val-Muqobala" asarining yozishining asosiy sababi meros ilmidagi merosxo'rlarni taqsimoti haqida bo'lgan.

Bugungi kunda rivojlangan g'arb davlat olimlari ilm-fan, madaniyat islom orqali butun dunyoga tarqalganligini e'tirof etmoqda. Mashhur fransuz tarixchisi, psixolog, sotsiolog, ijtimoiy psixologiya asoschisi Gyustav Lebon (1841-1831) o'zining "Arablar madaniyati tarixi" nomli kitobida bunday deydi: "Musulmonlarning tadqiqotga bag'ishlagan himmati kishining hayratga soladi. Ilm va tadqiqotda musulmonlar bilan teng millat bo'lishi mumkin, ammo tahminimcha musulmonlardan ustun bo'lmagan. Musulmonlar qo'l ostiga o'tgan shaharlarda masjid va madrasa qurishga katta e'tibor berdilar. Agar shahar katta bo'lsa, u holda bir emas, bir nechta masjid va madrasalar qurilgan" [8]. Musulmon madaniyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri ilm va kitobga muhabbat qo'yishdir. Tarixiy manbalarga ko'ra, Andalusiya da insonlarni kitob o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish uchun arablarga tegishli 70 ta kutubxona bo'lgan. Andalusiya da moddiy-ma'naviy madaniyatning yuksalishi aholining ilmiy bilimlarga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otish bilan bo'lgan.

Tahlil va natijalar. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, islom olamida ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi haqiqatdan ham murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lgan. Unda diniy rag'batlar muhim rol o'ynagan. Shu bilan birga amaliyot, iqtisodiy ehtiyojlar va tashqi ta'sirlar ham hal qiluvchi omil bo'lgan. Bilim o'rta asr musulmon sivilizatsiyasining ustuvor qadriyatidir.

Tadqiqotchilarning yozishicha: "Musulmonlar bilimga oliy qadriyat sifatida munosabat bildirganlar. Chunki bilim musulmon ma'naviy hayotining barcha tomonlarida, ularning siyosiy va diniy faoliyatida oddiy musulmonning kundalik hayotida ham o'z ifodasini topdi. Muhammadning "bilim" konsepsiyasi islomning ma'naviy hayotini uning asosiy o'zgarmas o'zaniga yo'naltirdi" [3]. Professor B.Abduxalimov fikriga ko'ra, milliy madaniyatlarining gullab-yashnashi, islom dini bilan ilm-fan va ma'rifatni yoyilishligi bilan bog'liq ekanligi kuzatila boshlaganiga Bag'doddagi "Baytul hikma" (IX asr), Buxorodagi "Sivan al-hikma" (X asr), Qohiradagi "Dar al-hikma" (XI-XII asr), Xorazmdagi "al-Ma'mun"[4]. (XI asr) ilm maskanlarini misol qilib ko'rsatish mumkin. Sanab o'tilgan ilmiy maktablar orasida Bag'doddagi "Baytul hikma" ilm dargohlarining eng qadimiysi, eng dastlabkisi va turli ilm egalariiga boy, mashhur olimlarni tarbiyalagan maskan bo'lishi orqali katta shuxrat topgani bilan ajralib turadi. Abdul Aziz Romdoni (Varendra Universiteti) ta'kidlagan: "Islom va ilm o'zaro bog'liq bo'lib, ularni integratsiya qilish zarur. Chunki ilm faqat diniy qadriyatlarga tayanilgan holda rivojlanishi

mumkin"[7]. Bu fikr, har qancha diniy va ilmiy birlikni qo'llab-quvvatlasa-da, ilmning mustaqil va tanqidiy tabiati bilan to'liq uyg'un emas. Ilm faqat diniy chegaralar bilan cheklangan holda emas, balki erkin tahlil va empirik metodologiya orqali rivojlanadi.

Islom olamida ilm-fan va madaniyatning ravnaq topishi masalasi dinshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilganda, ayrim olimlarning fikrlari ortiqcha ideallashtirilgan va tanqidiy yondashuvdan yiroq ekanligi ko'zga tashlanadi.

A.Ramli va Jaffari Avang islom sivilizatsiyasidagi ravnaqni "buddaviylik va islom orasidagi ilmiy muloqot natijasi"[8]. sifatida ko'rsatadilar. Ular bu aloqani faqat ijobiy yo'nalishda baholab, ichki tanqidiy qarama-qarshiliklar va aqidaviy ziddiyatlarni nazardan qochirishgan. Islom sivilizatsiyasi tarixida faqat tashqi ta'sirlar emas, balki ichki fikr almashinuvi va mu'tazila-ash'ariy qarama-qarshiligi ham muhim o'rin tutgan. Jauharotul Makniyah (Muhammadiyah Malang universiteti) esa shunday fikr bildirgan: "Islom sivilizatsiyasining qayta tiklanishi ilm va ta'lim tizimining diniy qadriyatlar bilan integratsiyasi orqali amalga oshirilishi mumkin. Bu qarash murakkab axloqiy va metodologik masalalarni yetarlicha hisobga olmagan, chunki fanning tabiiy rivoji ko'pincha tanqidiy fikr va diniy doiradan tashqari empirik tadqiqotlarga tayanadi.

Muhammad Hifdil Islom ta'kidlagan: "Islom sivilizatsiyasining tarixi butunlay diniy qadriyatlardan kelib chiqqan holda shakllangan". Ammo real tarixiy jarayonlar shunchaki diniy tamoyillar asosida emas, balki ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy dinamika ta'sirida rivojlangan. Bu esa uning umumlashtirilgan tezisini tanqidiy qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Doctor Fatmir SHEhu (Malayziya xalqaro islom universiteti dotsenti): "Islom insoniyat uchun kelajak sivilizatsiyasining asosi bo'lib xizmat qilishi mumkin" deb qayd etadi. Biroq bu fikr zamonaviy global sivilizatsion jarayonlarda islom sivilizatsiyasining o'zni va uning global raqobatda qanday imkoniyat hamda to'siqlarga duch kelishi haqida yetarlicha tahlil bermagan.

Bir jihatdan diniy qadriyatlar ilmga kuchli ilhom bergan bo'lsa-da, boshqa jihatdan ilmning rivoji amaliyot, erkin fikr va tashqi madaniyatlar bilan aloqalar ta'sirida shakllangan. IX-XII asrlarda Qur'onni karimning talqini, hadislarini to'plash, shariat qonunlarini ishlab chiqish jarayonlari shaharlarda amalga oshiriladi (Eronda – Xamadon, Nishopur, Mashxad, Afg'onistonda – Balx, Hirot, Markaziy Osiyoda – Buxoro, Samarqand, Termiz, Marv kabi shaharlarda). Movarounnahr vakillari bo'lgan Muxammad Xorazmiy va Axmad Farg'oniy Bag'dod akademiyasi "Baytul hikma"ga IX asrning 10-yillarida boradilar, "...aynan shu vaqtdan boshlab Markaziy Osiyoda musulmon madaniyatining mustakil tarzda rivojlanishi, ya'ni mahalliy xalqlar madaniyatining yangi bosqichi islomning O'rta Osiyo xalqlari madaniyatiga ta'siri haqida gap yuritish mumkin". [10]. Islom olamida ilm-fan va madaniyatning ravnaq topish jarayonini faqat Qur'on va sunnatga asoslangan ilohiy ilhom natijasi sifatida tushuntirishga urinadigan ba'zi mualliflar fikrlari tanqidiy qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Chunki bu yondashuvlar ko'p hollarda Islom sivilizatsiyasining murakkab, ko'p qirrali tarixi va ichki qarama-qarshiliklarini yetarlicha aks ettirmaydi.

Xususan, K.Kurmanbayev va D.Siximbayeva: "Islomda ilm tushunchasi boshidanoq ilohiy ma'rifatga bog'langan bo'lib, u diniy va dunyoviy bilimni bir butun holda shakllantirdi", deb ta'kidlaganlar. Mualliflarning bu qarashi metafizik nuqtayi nazardan to'g'ri bo'lishi mumkin, ammo ular ilmning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlar bilan shakllanish jarayonini yoritmagan holda ko'rsatganlar. Ilm nafaqat "qalb" va "iffat"ga asoslangan ma'rifat, balki tajriba, kuzatuv va mantiqiy tahlilga asoslangan jarayon ekanini

e'tibordan chetda qoldirish uni modern ilm konsepsiyalaridan uzoqlashtiradi.

D.Gutasning tanqidiy mulohazalari mazkur mavzuga tubdan yondashuvni taklif etadi. U shunday yozadi: "Islom va ilm deb ataluvchi tushuncha murakkab tarixiy voqeelikni soxta ikkilik shaklida ifodalaydi. Chunki "Islom"ni o'z-o'zidan harakatlanuvchi tarixiy agent deb qabul qilish reallikka zid". Gutasning bu fikrini tanqid qilgan mualliflar ko'pincha uni "sekulyar relyativizm"da ayblashga urinadi, ammo u haqli ravishda ta'kidlaganki, Islom sivilizatsiyasidagi ilm-fan taraqqiyoti har doim ham shariat yoki dinning mutlaq rag'batiga bog'liq bo'lmagan. Balki bu jarayon tarixiy davrlar, geosiyosiy omillar va xorijiy ta'sirlar bilan shakllangan. Islom madaniyatlarining xilma-xil va rivojlanayotgan tabiati va ilmiy harakatlarni shakllantirgan o'ziga xos tarixiy sharoitlarga e'tibor bermaydi. Gutas "Islom" ga yagona, o'zgarmas shaxs sifatida qarash tendensiyasini tanqid qiladi va bu haddan tashqari soddallashtirish islom tarixi va madaniyatining murakkabliklarini yashiradi. Birinchidan, u musulmon jamiyatlarida ilmiy faoliyat rivojlangan yoki pasaygan o'ziga xos tarixiy kontekstlarni tushunish muhimligini ta'kidlaydi. Ikkinchidan, ijtimoiy va intellektual ilmiy fikr, amaliyotni shakllantirgan ijtimoiy tuzilmalarni, intellektual an'analarni va institutsional sharoitlarni o'rganishga chaqiradi. Uchinchidan, tarixchilar ilmiy rivojlanishga olib kelishi mumkin bo'lgan dastlabki shartlarni aniqlashdan tashqariga chiqishlari va ilm-fan turli xil o'zgaruvchan sharoitlarda o'zini qanday saqlab qolishlarini o'rganishlari kerak, deb ta'kidlaydi. U keng umumlashmalardan tashqariga chiqish va islom dunyosining turli davrlari va mintaqalarida ilm-fan rivojiga ta'sir ko'rsatgan aniq ijtimoiy, intellektual va institutsional sharoitlarni o'rganish zarurligini ta'kidlaydi.

Monika Ringer (Kaliforniya universiteti, Los Angeles), Islom sivilizatsiyasidagi tarixiy islohotlar va "yangi tarixiy islom" konsepsiyasi orqali ilmiy rivojning rivoyat qilingan yoki ideallashtirilgan shaklini emas, balki uning tarixiy kontekstidagi o'zgaruvchan xususiyatini urg'ulaydi. Uning ta'kidlashicha, "islomiy modernizm islomni metafizik "essensiya" (lotincha - mohiyat, negiz) sifatida tushuntirish bilan bir vaqtda, uni muayyan tarixiy jarayonlar orqali qayta shakllantiradi". Ushbu yondashuv muhim ahamiyatga ega, chunki u ilmning rivoji borasidagi dogmatik tushunchalarni parchalab, ustiga haqiqiy tarixiy tahlilni qo'yadi. Islom olamida ilm-fan va madaniyatning ravnaq topishi masalasida ba'zi olimlar faqat diniy vahiy va Qur'onga oid manbalar ta'sirida shakllangan, deb hisoblaydi. Bunday yondashuv qaysi bir ma'noda to'g'ri bo'lishi, shar'iy ilmlarni rivojlanishi ta'sirida shakllangan bo'lishi mumkin, lekin tanqidiy qayta ko'rib chiqilishga muhtoj, chunki u islom sivilizatsiyasidagi ilm-fanning rivoji bilan bog'liq bo'lgan murakkab tarixi, falsafiy ixtiloflar va tashqi ta'sirlarni inkor qiladi.

Abdul Aziz Romdoni va Sofiya Anaba Fauziya o'z maqolasida: "Islom va ilm o'rtasida ajralmas bog'lanish mavjud bo'lib, ilm faqat diniy qadriyatlarga integratsiya qilinganda to'liq rivojlanishi mumkin", - deb ta'kidlaganlar. Bir qarashda bu fikr ilohiy va aqliy birlikni ifoda etadi, ammo uning muammosi shundaki, ilmning ratsional va tanqidiy tabiati shariat meyorlari bilan cheklanib qolishi xavfini tug'diradi. Ilmni faqat diniy bag'rikenglik doirasida tushunish, uning rivojlanishini chegaralab, eksperimental metodologiyalarga qarshi to'siq bo'lishiga olib keladi.

Xulosa. Shu asosda xulosa qilib aytish mumkin bo'ladi, islom olamida ilm-fan va madaniyatning ravnaq topishi shunchaki dinning qonunlari yoki sunnatning ilhomi bilan emas, balki uning murakkab ijtimoiy-tarixiy faoliyati, fikr erkinligiga oid islohiy harakatlar va tashqi sivilizatsiyalar bilan ilmiy muloqot natijasida sodir bo'lgan. Islomiy ilmning

taraqqiyotini tushunish uchun uni ilohiylashtirish emas, balki uning amaliy, mantiqiy va jamiyat bilan bog'liq shakllarini tan olish zarur.

ADABIYOTLAR

1. Abdulhalimov B. "Bayt al-Hikma" va O'rta Osiyo olimlarining Bag'doddagi ilmiy faoliyati. – T.: TIU, 2004.
2. Усмонов М.А. Распространение ислама и его роль в истории Средней Азии. // Из истории общественно-философской мысли и вольнодумия в Средней Азии. – Т.: Фан, 1994.
3. Samadova, R., & Djurayev, H. (2025). Islom dinining madaniyat va ilm-fan rivojiga ta'siri. *Modern Science and Research*, 4(4), 1335–1338.
4. Понгинг К. История исламской цивилизации. Указ. соч. 650 с.
5. Askari A. *Islomvmodernizm*. 2001. Tehron: Amir Kabir. 410 v
6. Muhammad A. *Islhot va ijthod*. – Qohira: Dorul-kutub, 1905. 241 v.
7. Marcotte R. *Islam and Science // ArsDisputandi*. 2006 – B.143
8. Arifxanova S.M., Rasuleva G.X., Abdullayeva M.N. *Musulmon falsafasida ratsionalizm va bilim muommolari*. – Toshkent: Falsafa va huquq instituti, 2011. – B. 7.
9. *La Civilization des Arabes 1884*. – P. 22.
10. Shahidipak M. (2020). The Concept of Science in Islamic Civilization. *Scholarly Journal of Psychology and Behavioral Sciences*, p. 420. Received: June 04, 2020 Published: June 12, 2020.
11. Halilović S. (2017). Islamic Civilization in Spain. *PsychiatraDanubina*, т.29 Suppl 1, p.64–72.
12. Shamsaei M. (2024). Cultural Contexts of the Formation of Science. *Journal of Islamic and Social Studies*.